

## ISLOM DUNYOSIDAGI G'OVAVIY KURASHLAR

**Karimov Odilbek Raximjonovich***O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi**Farg'onan akademik litseyi tarix fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Insoniyat tarixinining eng muhim va eng katta kashfiyotlaridan biri bu dindir. Din (arabcha, e'tiqod, ishonch, itoat) – xudo yoki xudolar, g'ayritabiyy kuchlar mavjudligiga ishonish hisoblanadi. Tarix silsilalariga ko'ra, asrlar mobaynida turli tasavvurlar hamda qarashlar ro'y berib, yakunda uchta jahon dini budda, xristianlik va islam dinlari paydo bo'ldi. Eng xaq va mukammal din hisoblangan islam dini tarqalishi, e'tiqodi borasida o'ziga rom etadigan jihatlari, mo'jizalari bilan bir qatorda turli ixtiyoqlar, tarafkashliklar kabi muammolari bo'lib kelgan hamda bugungi global hayotda davom etmoqda.

**Kalit so'zlar:** din, islam, e'tiqod, aqida, iymon, Qur'oni karim, johiliyat, gnoseologik qarashlar, islam teologiyasi

Uzoq o'tmishda bo'lgani kabi hozirgi davrda ham jamiyatimizdagi insonlarning birdamligi va tinch-xotirjam hayot kechirayotganini ko'rolmaydigan ayrim g'arazli kuchlar musulmonlar o'rtafiga aqidaviy ixtiyoqlarni solib, notinchliklar va betartibliklarni keltirib chiqarishga harakat qilayotgani sir emas. Sog'lom e'tiqodga ega bo'lish uchun adashgan firqa va oqimlar hamda ularning xato qarashlarini bilish lozim. Shu bois aqida ulamolari o'z kitoblarida adashgan firqa va oqimlarni alohida zikr qilganlar. Islom ummati o'rtafiga e'tiqodiy masalalarda kelib chiqqan aqidaviy ixtiyoqlarning bir necha sabablari bor:

1. Islom diniga nisbatan yot, g'arazli kimsalar tomonidan islam ummati o'rtafiga kelishmovchiliklar chiqarish, ularning hamjihatligiga raxna solish maqsadida aqidaviy ixtiyoqlar keltirib chiqarilgan. Bunga Usmon (r.a.) davridagi ixtiyoqlarni misol qilish mumkin. O'sha davrda asli yamanlik bo'lgan yahudi Abdulloh ibn Saba' zohiran islomni qabul qilib, islamning sof aqidasiga zid bir qancha e'tiqodlarni olib

kirib, o'zining g'arazli maqsadiga erishdi. Uning boshlagan fitnalari oqibatida Usmon (r.a.) shahid bo'ldi, musulmonlar o'rtasida «Jamal» urushi bo'lib o'tdi. Qancha musulmon musulmonlar qilichi ostida halok bo'ldi.

Abdulloh ibn Saba' ikkita asosiy buzuq aqidani targib qilgan: a) «Vasoyat» - Payg'ambar (alayhis-salom) o'zidan keyin musulmonlarga boshliq bo'lishni Ali (r.a.)ga vasiyat qilgan. Undan oldingi uchta xalifa xalifalikni nohaq qo'lga kiritgan. Shuning uchun barcha musulmonlar ushbu haqni o'z egasiga qaytarishga yordam berishi vojib. U mazkur tashviqoti bilan musulmonlarni Usmon (r.a.)ga qarshi qo'ydi; b) «Raj'at» — Muhammad (alayhis-salom) vafot etgandan so'ng dunyoga qaytadi. Keyinchalik Muhammad (alayhis-salom)ning o'rniqa Ali (r.a.)ni dunyoga qaytadi, degan buzuq e'tiqodni tarqatishga harakat qiladi. Abdulloh ibn Saba' ko'p safarlar qilib Misr, Kufa va Basra shaharlaridan o'z maslakdoshlarini topishga erishdi.

2. Qarindosh-urug'chilik ham aqidaviy ixtiloflarning sabablaridan biri hisoblanadi. O'z davrida ham, bugungi kunda ham forslar o'zlarini shialar e'tiqod qiladigan o'n ikkita imomdan to'rtinchisi Ali Zaynulobidinning tog'asi hisoblaydilar. Chunki Husayn (r.a.) forslarning oxirgi podshosi Yozdigardning Shahribonu ismli qiziga uylanadi. Undan Ali ismli farzand ko'radi. Ushbu jihatdan forslar Ali Zaynulobidinni va shia e'tiqodini qo'llab-quvvatlaydilar.

3. Bilimsizlik - o'tmishda ham hozirgi kunda ham aqidaviy ixtilofning asosiy sabablaridan biri bo'lib qolmoqda. Tobeiyalar davrida Hasan Basriyning dars majlisiga bir kishi kelib. islom dinida katta gunoh qilgan kishining hukmi qanday bo'lishi haqida so'raydi. Hasan Basriy javob berishidan oldin shogirdi Vosil ibn Ato adashib: «Katta gunoh qilgan kishi iymondan chiqadi, lekin kufrga kirmaydi. Balki iymon bilan kufr orasidagi bir manzilda bo'ladi», deb javob beradi. Keyinchalik Vosil ibn Ato adashgan mo'taziliya yo'nalishiga asos soladi.

4. Dinda g'uluvga ketish - mo'tadillikdan og'ib zalolatga ketish sabablaridan biri hisoblanadi. O'tmishda xorijiylar firqasi katta gunoh qilgan kishini kofirga chiqarib, ularning qonlari va mollarini halol sanaganlar. Buning oqibatida ko'plab begunoh kishilarning qonlari to'kilgan va mol-mulkleri talon-taroj qilingan. Bugungi

davrimizdag'i ayrim toifalar ba'zi musulmonlarni arzimagan sabab yoki gunoh bilan kufrga nisbat bermoqdalar. Bu bilan bir din va millat vakillari o'zaro ixtilofiga sabab bo'lmoqdalar.

5. Soxta salafiylik g'oyalari bilan qurollangan ayrim toifa va firqa vakillari Qur'oni karim va hadisi shariflarning zohiriy ma'nolarinigina olib, asl mohiyatini anglab yetmasligi tufayli e'tiqodiy va ibodatga oid masalalarda islom ummati o'rtasida ixtiloflar keltirib chiqarmoqdalar.

Aslida, bunday holatlar islom teologiyasida qoralanib, o'zaro bo'linmaslikka, dinni og'irlashtirmaslik va o'zaro totuv bo'lishga chaqiriladi. Diniy masalalarda haddan oshish kishini halok etishdan ogohlantiradi. Bu haqda G'azzoliyning fikri quyidagicha: "Me'yorida foydali, mahmud bo'lgan ilmlarga farzi kifoyalar misol bo'ladi. Bu ilmlarni kamroq o'rganish o'rtacha hisoblanadi, ammo unga chuqur kirishish uchun umrining oxirigacha harakat qilishdan qaytarilmaydi. Bas, shunday ekan, ikki ishdan birini tanla: yo o'zing bilan mashg'ul bo'l, yoki o'zingni qo'yib, boshqalar uchun mashg'ul bo'l. Ammo o'zingni isloh qilmay turib, boshqalarni isloh qiluvchi narsalar bilan mashg'ul bo'la ko'rma. Agar o'zing bilan mashg'ul bo'lmoqchi esang, holating senga farz qilgan ilm bilan shug'ullan"<sup>1</sup>. Demak, faqat farzi kifoya bilan mashg'ul bo'lmasdan, boshqa islohiy ilmlarni ham chuqurroq o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Islom ilohiyotining rivojlanishi va buyuk allomalarining islom aqidalari va normalarini himoya qilishdagi matonati ortidan islom dinining hamma zamon uchun muvofiq keluvchi din ekanligi to'la asoslab berilgan. Ya'ni, islom ilm-fan, taraqqiyot va kishilar hayotini yengillashtirishga sabab bo'luvchi omillarni barcha zamon va makonda qo'llab-quvvatlab kelganligi oydinlashadi. Shuningdek, insoniyatning hayotini tartibga soluvchi katta olimlar, inson tabiatini o'rganish, uni shaxs va jamiyatning saodati yo'liga boshlashga harakat qilgan mutafakkirlar erishgan natijalarning xulosasini Islom dini allaqachon Qur'oni Karimda va Payg'ambar

<sup>1</sup> Фаззолий, Абу Ҳомид Мұхаммад ибн Мұхаммад. Иҳё улум ад-дин. Таржимон Мубашшир Аҳмад. –Тошкент: Тошкент ислом университети, 2014. –Б.92

alayhissalomning sunnatlarida bayon qilib qo'yganini butun dunyo bildi va bilmoqda<sup>2</sup>. Shunga qaramay, dinni dogmatik shaklga solishga urinuvchi, islam ko'rsatmalari keskin va har qanday o'zgarishdan xoli, deb talqin qiluvchi toifalar uchrab turadi. Islom teologiyasiga ko'ra, islam dinining ayrim ko'rsatmalari zamon va makonda o'zgarsa ham hech qanday o'zgarishni qabul qilmaydi. Masalan, dindagi e'tiqodiy tushunchalar, asosiy qoidalar, ibodatga oid hukmlar o'zgarmay kelmoqda. Lekin insonlar o'rtasida ijtimoiy, iqtisodiy va maishiy masalalarda islam dini jamiyatdagi vaziyat, zarurat va ehtiyojdan kelib chiqqan holda, agar dinning asosiy qoidalariga xilof kelmaydigan bo'lsa, muayyan o'zgarishlarni qabul qiladi.

Afsuski, hozirgi kunda ayrim mutassib shaxslar har qanday yangi ishni bid'at-xurofot sanab, o'zgarishlarga keskinlik bilan munosabatda bo'lishga odatlanib qolganlar. Ular o'z iddaolarini "Kim bizning ishimizda unda bo'lмаган yangilikni paydo qilsa, u rad etiladi", "Darhaqiqat, eng yaxshi so'z Ollohnning Kitobi, eng yaxshi yo'l Muhammad (alayxis-salom)ning yo'lidir. Ishlarning eng yomoni esa ularning yangi paydo bo'lганларидир ва har bir yangilik zalolatdir"<sup>3</sup> kabi hadislar bilan izohlaydilar. Ongi qotib qolgan mutaassib kimsalarning diniy masalalarga harfiy, zohiran yondashib, Qur'oni karim va hadislarni to'g'ridan-to'g'ri olib so'zma-so'z hayotga tadbiq etishga urinishlarni kishilar turmish tarzida ko'plab muammolarga sabab bo'lmoqda.

Bundan ma'lum bo'ladiki, islam dini qotib qolgan va hech qanday o'zgarishni qabul qilmaydigan din emas. Aksincha, u insonlar ehtiyojini har doim hisobga olgan. Din ko'rsatmalarini tatbiq qilishda voqeylekni inobatga olmaslik, haddan oshish katta xatolarga olib kelishi va jamiyatda turli ixtiloflar avj olishiga sabab bo'lishi mumkin. Natijada shariatning maqsadiga olib boradigan yo'llar berkilib, xalq mashaqqatga duchor bo'ladi. Shu bois yangi muammolarni hal qilishda voqeylekni chuqur o'rghanish hamda shariat ko'rsatmalarini shunga muvofiq ravishda tatbiq etish lozim.

<sup>2</sup> Сайид Мубашшир Тарозий. Соф табиат дини. Тарж. Шахй Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. –Тошкент: Hilol-nashr, 2019. –Б. 120.

<sup>3</sup> Ислом маърифати ва ҳозирги замон. Маъсул муҳаррир А.Абдуллаев. –Тошкент: Тошкент ислом университети, 2017. –Б. 10.

Zamonaviy islom gnoseologik-teologik qarashlar tizimining namoyon bo'lish holati, o'zgarishlar jarayonini va uning o'rta asrlar islom gnoseologiyasi va teologiyasi an'analarini o'rganish ham dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Zero, "biz Ollohning Kitobi va Payg'ambar sunnatida shar'iy ahkomlarni, shuningdek, ummatning avvali qanday aziz bo'lganini bilishimiz bilan bir qatorda, o'z tariximizdan tashqari boshqalarning tajribalarini o'rganish ham maqsadga muvofiqdir. Ba'zi donishmandlarimiz G'arb tajribasini o'rganishga qarshilar, sababi – ular ta'siridan o'zligimizdan uzoqlashish xavotiridir. Albatta, bu o'rini. Lekin o'z qadriyatlarimizdan voz kechmagan holda insoniyat tajribasini o'rganish ziyon qilmaydi"<sup>4</sup>. Demak, zamonaviy ilohiyotshunoslikni rivojlantirish, gnoseologik qarashlarni tolerantlashtirish bilan birga muvozanatni to'g'ri shakllantira oladigan ilm egalarini tarbiyalash dolzarb vazifalardandir. Zero, Sahl ibn Abdulloh aytadi: "Olimlardan tashqari hamma odamlar o'likdir. Olimlarning ilmiga amal qilayotganidan tashqari hammasi mastdir. Amal qiluvchilarning muxlislaridan boshqa hammasi g'ururga ketgandir. Ixlos bilan amal qilganlar xatardadir"<sup>5</sup>. Mana shunda mast ilmlilarni emas, mas'uliyatli va ilmiga amal qiladiganlarni, G'arb ilmiy muhitidan foydalisini ajrata oladigan olimlarni tarbiyalashga imkon beradi. Buning uchun o'rta asr Sharq allomalarining gnoseologik va teologik qarashlarini chuqur o'rganish, uni zamonaviy sharoitda rivojlantirishda arab-musulmon an'analarini G'arb an'analari bilan solishtirish, ahamiyatli tomonlaridan xulosa chiqarish muhim ahamiyatga egadir.

Tarixdan ma'lumki, islomning nozil etilishi ilmga odatlanmagan, ma'rifiy muhitga ko'nikmagan jamiyatda haqiqiy inqilob bo'lgan. Islomdan oldingi davr – "johiliyat" (ilmsizlik) davri deyilgan. Vahiy nozil bo'lishi bilan ilm boshlandi, dunyoga hidoyat nuri tushdi. Islomda johillik, shubha, yomon gumonga o'rinn yo'q. Olloh o'z Payg'ambarini johillikni sevib, ilmni suymaydiganlardan yuz o'girishga buyurdi: "Afjni ixtiyor eting, yaxshilikka buyuring, johillardan esa yuz o'giring".

<sup>4</sup> Саржоний, Доктор Роғиб. Ислом ва олам. –Тошкент: Имом Бухорий халқаро маркази, 2018. –Б. 4.

<sup>5</sup> Самарқандий, Абу Лайс. Таңбәҳул ғоғилин. Тарж. Д.Қўшоқов; Масъул мұхаррир Шайх Абдулазиз Мансур. – Самарқанд: Имом Бухорий халқаро маркази нашриёти, 2020. –Б. 370

Islom dini shubha-gumonga asoslangan qadriyatlarni inkor qiladi. Islom shariati, faqat aniq, ishonchli ilmga asoslanadi.

Bugungi kunda soxta payg'ambarlar, imom mahdiylar, Ollohdan vahiy qabul qilishni da'vo qiluvchilar, g'ayb ilmidan xabar beruvchilar, soxta eshonlar oz bo'lsa-da uchramoqda. Ayniqsa, yoshlarimizning diniy bilimi o'ta sayoz, turli fitna-fasod qo'zg'aydigan fikrlar va g'oyalarni sodda xalq ongiga singdirishga urinadigan chalasavod kimsalarga ergashib ketmasliklari uchun ularni to'g'ri yo'lga solish va hushyorlikka chorlash<sup>6</sup> dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Buning uchun esa, islom ilohiyotini chuqur o'rganish, o'rta asr Sharq gnoseologiyasidan yaxshi xabardor bo'lish, ularni mushtarak tomonlarini anglagan bo'lish talab etiladi. Shu bilan bir qatorda, turli toifalar tomonidan diniylik bilan dunyoviylik nisbati masalasi buzib talqin qilinmoqda hamda islom – din ham siyosatni o'z ichiga qamrab olgan ilohiy ta'limot ekanligi haqida ko'plab mantiqsiz da'volar yangramoqda. Aslini olganda, musulmonlarning dunyoviy davlatda yashashlari mumkinligi hech qanday ilmiy isbot talab qilmaydigan aksiomadir. Nafaqat G'arbiy Yevropa, Amerika va Avstraliyadagi aholining ozchiligini tashkil qiluvchi musulmonlarning tajribasi, balki aholisining mutlaq ko'pchiligi musulmonlardan iborat Turkiya yoki O'zbekiston tajribasi ham shundan dalolat beradi<sup>6</sup>. Buning uchun islom asoslarini chuqur o'rganish, islom ilohiyotini chuqur anglash, gnoseologik qarashlarga nisbatan bag'rikeng munosabatni shakllantirish zarur.

Tarixda va hozirgi zamonamizda paydo bo'lgan turli toifalarning buzuq e'tiqodlari sodda va ishonuvchan odamlarni adashtirmoqda. Olimlarga ergashdik, endi haq yo'llini topdik deb o'yagan noqis aql egalari, ularga ergashib borib, boshlarini toshlarga urib, juvonmarg bo'ldilar. Bu kabi dinimiz mohiyatini chuqur tushunib yetmasdan chalamulla da'vatchilarga ergashgan yosh avlodga achinmasdan ilojimiz yo'q<sup>7</sup>. O'rta asrlar sharqida islom teologiyasi aqidalarni himoya qilish bilan birga mana

<sup>6</sup> Тулепов А. Ислом ва ақидапараст оқимлар. –Тошкент: Моварауннахр, 2017. –Б. 4.

<sup>6</sup> Кремер Г. Ислом – дин ва давлат: исломда дин, ҳуқуқ ва сиёсатнинг ўзаро муносабати // Ислом ва дунёвий-маърифий давлат/ масъул мұхаррир З. Мунавваров. –Тошкент: Имом ал-Бухорий халқаро жамғармаси, 2003. – Б. 60.

<sup>7</sup> Тулепов А. Ислом ва ақидапараст оқимлар. –Тошкент: Моварауннахр, 2017. –Б. 466.

shunday buzuq e'tiqod va o'zlarini to'g'ri yo'l daligini iddao qiluvchi mutassiblarga qarshi kurashganligini ham ko'rish mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Фаззолий, Абу Ҳомид Муҳаммад ибн Муҳаммад. Ихё улум ад-дин. Таржимон Мубашшир Аҳмад. –Тошкент: Тошкент ислом университети, 2014.
2. Саййид Мубашшир Тарозий. Соф табиат дини. Тарж. Шахӣ Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. –Тошкент: Hilol-nashr, 2019.
3. Абдуллаев А. Ислом маърифати ва ҳозирги замон. Тошкент: Тошкент ислом университети, 2017.
4. Саржоний, Доктор Роғиб. Ислом ва олам. –Тошкент: Имом Бухорий халқаро маркази, 2018.
5. Самарқандий, Абу Лайс. Таңбехул ғоғилин. Тарж. Д.Қўшоқов; Масъул мұхаррир Шайх Абдулазиз Мансур. –Самарқанд: Имом Бухорий халқаро маркази нашриёти, 2020.
6. Тулепов А. Ислом ва ақидапараст оқимлар. –Тошкент: Моварауннахр, 2017.
7. Кремер Г. Ислом – дин ва давлат: исломда дин, ҳуқуқ ва сиёсатнинг ўзаро муносабати // Ислом ва дунёвий-маърифий давлат/ масъул мұхаррир З. Мунавваров. –Тошкент: Имом ал-Бухорий халқаро жамғармаси, 2003.
8. Тулепов А. Ислом ва ақидапараст оқимлар. –Тошкент: Моварауннахр, 2017.